



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

**O‘ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIK MUAMMOLARINING
KESKINLASHUVI VA ULARNI BARTARAF ETISHDA
TADBIRKORLIKNING TUTGAN O‘RNI**

Ergasheva N.R.

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi (Dsc)

Barotov K.F.

Qarshi davlat texnika universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola O‘zbekistonda aholi bandlik muammolarining keskinlashuvi va ularni bartaraf etishda tadbirkorlikning tutgan o‘rni asosida aholi daromadlarini oshirishning nazariy va uslubiy asoslarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda mintaqaviy iqtisodiy o‘rta va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va iqtisodiy infratuzilmani yaxshilashning ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, moliyaviy resurslarni jalb qilish va iqtisodiy siyosatni optimallashtirishga qaratilgan samarali usullar tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, aholi daromadlari, iqtisodiy rivojlanish, kichik va o‘rta biznes, innovatsion texnologiyalar, ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiy siyosat, davlat-xususiy hamkorlik, iqtisodiy barqarorlik, mintaqaviy strategiyalar.

**ОБОСТРЕНИЕ ПРОБЛЕМ ЗАНЯТОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ
И РОЛЬ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ИХ РЕШЕНИИ**

Эргашева Н.Р.

самостоятельная соискатель (Dsc)

Каршинского государственного технического университета

Баротов К.Ф.

*магистрант Каршинского государственного
технического университета*

Аннотация: Настоящая научная статья посвящена исследованию теоретических и методологических основ повышения доходов населения с учетом обострения проблем занятости в Узбекистане и роли предпринимательства в их устранении. В исследовании рассматривается важность развития малого и среднего бизнеса, создания новых рабочих мест, внедрения инновационных технологий и совершенствования экономической инфраструктуры для обеспечения регионального экономического роста и социальной стабильности. В статье также проанализированы эффективные методы, направленные на





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

укрепление сотрудничества государственного и частного секторов,
привлечение финансовых ресурсов и оптимизацию экономической политики.

Ключевые слова: предпринимательство, доходы населения, экономическое развитие, малый и средний бизнес, инновационные технологии, создание рабочих мест, экономическая политика, государственно-частное партнерство, экономическая устойчивость, региональные стратегии.

THE AGGRAVATION OF EMPLOYMENT PROBLEMS IN UZBEKISTAN
AND THE ROLE OF ENTREPRENEURSHIP IN SOLVING THEM

Ergasheva N.R.

Associate Professor, Karshi state technical university

Barotov K.F.

Master's student, Karshi state technical university

Abstract: This scientific article is devoted to the study of the theoretical and methodological foundations of increasing the income of the population based on the aggravation of employment problems in Uzbekistan and the role of entrepreneurship in their elimination. The study examines the importance of developing small and medium-sized businesses, creating new jobs, implementing innovative technologies, and improving economic infrastructure in ensuring regional economic growth and social stability. The article also analyzes effective methods aimed at strengthening cooperation between the state and the private sector, attracting financial resources, and optimizing economic policy.

Keywords: entrepreneurship, population income, economic development, small and medium-sized businesses, innovative technologies, job creation, economic policy, public-private partnership, economic stability, regional strategies.

O'zbekistonda rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o'tish jarayonida yangi iqtisodiy tizim, ya'ni erkin bozor munosabatlari shakllanmoqda. Bu ishlab chiqarish sohasida, taqsimot, almashuv hamda mulkiy munosabatlarda tub o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. Eng muhimi islohotlar jarayonida bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot mohiyatiga xos tarzda ekstensiv rivojlanish yo'ldan intensiv rivojlanish yo'liga o'tildi. Milliy iqtisodiyotning intensiv asosda rivojlanish yo'li barcha resurslardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Iqtisodiy islohotlar jarayonida ijtimoiy ishlab chiqarishning intensiv rivojlanishi natijasida iqtisodiy o'sish sur'atlari jadallashdi, resurslardan samarali foydalanish natijasida maxsulot tannarxi pasayib, uning sifati oshdi. Intensiv rivojlanish fan va texnik taraqqiyot, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida yangi texnologiyalarni kiritish, xodimlarning malakasini oshirish, resurslardan unumli foydalanishning amaliy





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

natijasidir. Ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash natijasida mehnat unumdorligi oshib, iqtisodiyotda band bo'lgan aholining nisbiy qisqarishi yuz berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2021-yil 27-martdagi PQ-5041-sonli "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4804-sonli "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-avgustdagi 504-sonli "Hududlarda "mahallabay" ishlash asosida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining doimiy daromad manbalarini ko'paytirish orqali kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-93-sonli "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni va shu kabi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqolaga xizmat qiladi.

Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish va aholi daromadlarini oshirish bugungi kunda davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy tizimida mintaqalarning o'ziga xos iqtisodiy xususiyatlari, ijtimoiy muammolari va rivojlanish potentsiali mavjud. Shuning uchun mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va iqtisodiy faoliyatni kengaytirish orqali aholi turmush darajasini oshirish juda muhim ahamiyatga ega. Tadbirlar va strategiyalarni ishlab chiqishda, har bir mintaqada mavjud bo'lgan tabiiy resurslar, infratuzilma, mehnat bozori va iqtisodiy iqlimni hisobga olish zarur.

Tadbirkorlik faolligi mintaqaviy iqtisodiyotning asosiy rivojlanish omillaridan biri bo'lib, u yangi ish o'rinlarini yaratish, mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va aholi daromadlarini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning samarali usullari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish mumkin. Shu bilan birga, tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli, xususiyl sektor bilan hamkorlik, moliyaviy resurslar va raqobatbardoshlikni ta'minlash masalalari alohida e'tiborga olinadi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganishga qaratilgan. Maqolada, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan davlat siyosati, iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmaning ahamiyati, shuningdek, innovatsion yondashuvlar va mintaqaviy strategiyalarni amalga oshirishda qo'llaniladigan samarali metodologiyalar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari, mintaqalarda





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

aholi daromadlarini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Mintaqada tadbirkorlikni rivojlantirish asosida aholi daromadlarini oshirishning nazariy va uslubiy asoslari sohasida turli olimlar tomonidan bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu adabiyotlar sharhida mintaqaviy iqtisodiy rivojlanish, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan nazariy yondashuvlar va metodologik usullarni tahlil qilamiz.

Aholi daromadlari – individ yoki oilaning asosiy ehtiyojlari ularni qanoatlantirish uchun mavjud bo'lgan mablag'lardan ko'proq bo'ladigan bir holat[6]. Iqtisodchi olim A. Vaxabovning fikriga ko'ra, aholi daromadlari-hayot kechirish, mehnat qilish qobiliyatini takror ishlab chiqarish, avlodlar uzviyligini davom ettirish uchun zarur bo'lgan hayotiy ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhlarining iqtisodiy holatini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Aholi daromadlari nisbiy tushuncha hisoblanib, har bir jamiyatda qabul qilingan turmush darajasining umumiy standartiga bog'liq bo'ladi. Aholi daromadlari holatida yashayotgan aholi qatlamlari quyidagi to'qqiz holatdan kamida to'rttasiga yetarli darajada bo'lishi kerakligi bilan hisoblanadi:

- ijara yoki kommunal to'lovlarni to'lash;
- o'z uy-joyini yetarli darajada isitish;
- tasodifiy xarajatlarni qoplash;
- go'sht, baliq yoki ularning o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ikki kunda bir iste'mol qilish;
- uydan tashqarida kamida bir haftalik hordiq chiqarish;
- avtomobil;
- kir yuvish mashinasi;
- rangli televizor;
- uyali aloqa yoki telefon.

Yuqoridagi keltirilgan to'qqizta vaziyatdan kamida to'rttasini bajara olmaydigan kishilar moddiy resurslarning yetishmasligi holatida yashayotgan aholi qatlamlari hisoblanib, ularga ijtimoiy muhtojlik nafaqalari tayinlanadi[7]. Iqtisodchi olim Sh. Shodmonovning fikriga ko'ra, aholi daromadlari-bu hayot uchun muhim bo'lgan bilimchi ehtiyojlarni qondira oladigan, ishga layoqatli bo'lib o'z naslini davom ettirish uchun yetarli daromadga ega bo'lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhning iqtisodiy holatidir. Huddi marksistlar g'oyasi kabi, g'arb liberal nazariyasida ham kambag'allik, shaxs yoki uning oilasi hayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun vositalar bo'lmagandagi holatini anglatadi [8].

“Aholi daromadlari tushunchasi aholi guruhlarining shunday ahvolini tavsiflaydiki, ushbu jamiyatdagi oqilona minimumga muvofiq bo'lgan farovonlik darajasiga erishish mumkin bo'ladi”. Demak, [9] biz terminlarning mazmun-mohiyatini anglagan holda bir-biridan farqlashimiz kerak bo'ladi. Biroq hozirda dunyo mamlakatlari bo'yicha kambag'allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umumqabul qilingan hamda yagona





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

kelishilgan ta'rifi ishlab chiqilmagan. Har bir mamlakat o'zi uchun belgilangan kambag'allik mezonidan kelib chiqib tavsiflaydi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekistonda mustaqillik yillarida bandlik muammosining keskinlashuviga sabab bo'lgan quyidagi asosiy omillar kuchli ta'sir ko'rsatganligini aniqladik:

- iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar;
- fan va texnika taraqqiyoti ta'siri ostida mehnat unumdorligining o'sishi;
- bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotga o'tish natijasida resurslardan, jumladan ishchi kuchidan foydalanish samaradorligining oshganligi;
- demografik vaziyatda sodir bo'lgan o'zgarishlar.

Bulardan ayrimlariga batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Fan va texnika taraqqiyoti mehnat unumdorligining o'sishi asosida iqtisodiyotni jadal rivojlantirishning yetakchi omili hisoblanadi. Ayniqsa innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonida ushbu omilning iqtisodiy taraqqiyotidagi roli benihoya oshib ketdi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda fan va texnika yutuqlarini amaliyotga joriy qilish, jismoniy, ayniqsa ma'naviy jihatdan eskirgan jihoz va uskunalarni yangi, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish asosida milliy iqtisodiyotni tubdan modernizatsiyalash masalalariga jiddiy e'tibor qaratildi.

Mamlakatda fan va texnika yutuqlaridan unumli foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va innovatsion jarayonlarni jadallashtirish asosida milliy iqtisodiyotning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan makroiqtisodiy siyosat natijasida keyingi yillarda mehnat unumdorligi tez sur'atlar bilan o'sib bordi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlar keskin bozor raqobati ta'sirida o'z ixtiyorida bo'lgan mulkdan samarali foydalanishga, barcha resurslardan, jumladan ishchi kuchidan ortiqcha isrofgarchiliklarga yo'l qo'ymasdan tejamkorlik bilan foydalanishga astoydil intiladilar.

Shu sababli islohotlarning dastlabki bosqichlaridayoq iqtisodiy qarorlar qabul qilishda mustaqillikka erishgan xo'jalik subyektlari rejali iqtisodiyot davrida sun'iy ravishda yaratilgan, lekin aslini olganda ortiqcha ish o'rinlarini barham berishni boshladilar. Natijada ko'p ish o'rinlari qisqartirildi va bunday ish o'rinlarini egallab turgan ishchi-xodimlar ishsiz bo'lib qoldilar. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, sun'iy yaratilgan ortiqcha ish o'rinlarini qisqartirish jarayonlari ayniqsa qishloq xo'jaligida juda talofotli kechdi. Chunki sobiq sovet tizimi davrida bandlikning institutsional asoslari o'zgacha bo'lib, ishsizlar jinoiy javobgarlikka tortilgan. Aholining 2/3 qismi qishloq joylarida istiqomad qilganligi va ularning hammasini ish bilan ta'minlashning iloji yo'qligi sababli qishloq xo'jaligida juda ko'p sun'iy ish o'rinlari yaratilgan edi. Iqtisodiy islohotlar jarayonida bunday ish o'rinlarini qisqartirish harakatlari kuchayib ketdi.

Statistik ma'lumotlar tahlili mustaqillik yillarida iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, shuningdek, agrar islohotlarning bevosita ta'siri ostida qishloq xo'jaligida band





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

bo'lganlar sonining va ularning iqtisodiyotda band bo'lgan aholi sonidagi ulushining pasayib borayotganligidan dalolat beradi.

Mamlakatda kechayotgan murakkab demografik jarayonlar va aholi tabiiy o'sishining yuqori sur'atlari ham mehnat bozoridagi ishchi kuchiga talab va uning taklifi o'rtasidagi muvozanatning buzilishi hamda ishsizlik darajasining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Dissertatsiya doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar O'zbekistonda mustaqillik yillarida doimiy aholi soni, uning tarkibida mehnat resurslari, xususan iqtisodiy faol aholi soni ancha tez sur'atlar bilan o'sib borganligi to'g'risida xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, mustaqillik yillarida O'zbekistonda doimiy aholi soni tez sur'atlar bilan o'sgan, mehnat resurslari esa undan ham yuqori sur'atlarda ko'paygan.

Yuqorida qayd etilgan va boshqa bir qator omillarning ta'siri ostida (iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar jarayonlarining davom etishi, ishchi kuchi sifatiga talabning oshishi, aholi ehtiyojlarida sodir bo'ladigan o'zgarishlar) mehnat bozoridagi ahvol yanada murakkablashishi mumkin.

Ushbu holatlar bandlikning hozirgi zamon talablariga javob beradigan hamda mehnat bozorida kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni bartaraf etishga molik bo'lgan modellarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Iqtisodchi V.P.Leonova yuqorida bildirilgan fikrlardan farqli ravishda, xizmat ko'rsatish sohasi yangi vazifalarni bajarishi lozimligini ko'rsatadi. U xizmat ko'rsatish sohasi inson kapitalini rivojlantirishda, ijtimoiy va demografik muammolarni hal etishda muhim vazifalarni bajaradi, deb ta'kidlaydi. Iqtisodchi olimlarning xizmat ko'rsatish sohasi vazifalari to'g'risidagi fikr va mulohazalarini o'rganib, xizmat ko'rsatish sohasi aholi bandligini ta'minlashda quyidagi vazifalarni bajaradi, degan xulosaga keldik:

Birinchidan, mehnat bozorini tartibga solish vazifasi. Mehnat bozorini barqarorlashtirish uni avvalo tartibli, madaniylashtirish shaklini barpo etishdan boshlanadi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tizimda mehnat bozori ham, bozorning boshqa turlari singari, davlat tomonidan nazorat qilinadi va tartibga solinadi. Mehnat bozorida ishchi kuchini taklif qiluvchilarga munosib sharoit yaratish, uning mehnat muhofazasini ta'minlash, mehnatini sug'urtalash va kafolatlash, o'zining kasbiga-hunariga mos ish bilan ta'minlash kabi vazifalarni xizmat ko'rsatish sohasi bajaradi.

Ikkinchidan, xizmatlar sohasida mehnat bozorini shakllantirish vazifasi. Moddiy ishlab chiqarishdan ortgan aholini ish bilan ta'minlashda va umuman aholi bandligini oshirishda xizmatlar bozori katta ahamiyatga ega. Xizmatlar bozorini shakllantirish uni mehnat bozoridan ajratib olishdan boshlanadi. Xizmatlar bozori ishsizlik muammosini yechishning samarali usuli hisoblanadi. Xizmatlar bozorini milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati shundaki, aholini ish bilan ta'minlashda xalqimizning milliy xususiyatlari, milliy mafkurasi va tafakkuriga xos mehnat va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Chunki xizmatlar bozori aholining ishsiz qatlamiga o'ziga munosib ish





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

topishga imkon beradi. Mehnat bozori esa har doim harakatda va o'zgarishda bo'ladi - deb, ta'kidlaydilar

Uchinchidan, ishsizlikni bartaraf etish vazifasi. Fan va texnika taraqqiyoti, yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishda qo'llanilishi natijasida ba'zi bir tarmoq va soha mahsulotlariga bo'lgan talab qisqarib, zamonaviy mahsulot turlariga talab o'sadi. Natijada ba'zi bir kasb yoki mutaxassisliklar egalariga talab qisqaradi. Bu muayyan (tarkibiy) ishsizlik turlarini keltirib chiqaradi. Uni bartaraf etishda esa xizmat ko'rsatish sohasining tarmoqlari muhim rol o'ynaydi.

To'rtinchidan, yalpi talabni oshirish vazifasi. Ma'lumki, aholining ma'naviy dunyosi xizmat ko'rsatish soha yordamida shakllanadi. Aholi dunyoqarashining kengayishi yangi mahsulot va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini shakllantiradi. Bu esa, o'z navbatida aholi yalpi talabini oshiradi.

Demak, xulosa o'rnida ta'kidlaydigan bo'lsak, xizmat ko'rsatish sohasining mehnat bozorini barqarorlashtirish, xizmatlar bozorini shakllantirish, ishsizlikni bartaraf etish, yalpi talabni shakllantirish kabi muhim vazifalari makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi ishsizlikni bartaraf etish, bandlikni oshirishda xizmat ko'rsatish sohasi muhim vazifani bajarishini ko'rsatdi. Masalan, AQShda aholi bandligini ta'minlashda asosan xizmat ko'rsatish sohasining moliya va kredit tarmog'i muhim ahamiyatni kasb etgan. AQShning aholisi kredit faoliyatiga moslashganligi, ularning iqtisodiy munosabatlarini kredit faoliyatisiz tasavvur qilish qiyinligi, kredit insonlarni mehnatda band bo'lishga, unumli ishlashga, ish joylarini tark etmaslikka, korxona taqdirini o'z taqdiri bilan bog'lash evaziga kredit summalarini qoplashning asosiy manbai ekanligi yotadi. Ish joylaridan ayrilish iqtisodiyotda band bo'lganlar uchun fojia xisoblanadi. AQShning bunday kredit siyosatini qo'llashidan maqsad aholi bandligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatib, ishsizlar sonini qisqartirishdan iborat. AQShda kredit siyosatini muhim jihatlaridan biri - ipoteka kreditini rivojlantirish va unga aholi keng qatlamlarining jalb etish mexanizmini ishlab chiqib, turli sohalarda band bo'lgan aholining ipoteka krediti vositasida ishga rag'batlantirishdan iborat. Demak, ushbu mamlakatda aholi bandligini ta'minlashda, uning turmush darajasini oshirishda kredit siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, AQShda yuritilgan bunday kredit siyosatining an'anaviy tus olishi, ma'lum muddatdan so'ng jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini keltirib chiqarishga sabab bo'ldi. Demak, har bir davlat aholi bandligini ta'minlash, ishsizlik muammosini bartaraf etish chora-tadbirlarini, yo'llari va mexanizmlarini mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilashi lozim.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Прудон П. Бедность как экономических принцип. (2-глава, стр-11)
Электронная библиотека.
https://royallib.com/book/prudon_per/bednost_kak_ekonomicheskij_printsip.html
2. Smith, A. (1776), "An enquiry into the nature and causes of the wealth of nations"
– London: Methuen & Co., Ltd.
3. Safarova N. Kambag'allikni qisqartirishda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirining tahlili. T.: "Iqtisodiyot: tahlillar va prognozlar" jurnal. – 2021. №1, – B. 48.
4. Хуснутдинова Л. Бедность в современной экономической системе. – Автореферат кан. экономических наук. дис. ... Казань. 2012.
5. Marketing terminlari izohli lug'ati. Asosiy tushunchalar va istilohlar. – T: 2012. – B. 201.
6. Vaxabov A. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish. – T: "Innovatsiya-Ziyo". 2020. – b 73.
7. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik, - – T: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, - B. 248.
8. http://fundamental-economic.uz/articlepdf/Abdullaev_R:Amalparast_X.Allaqulov_nega_xalqimizni_aldayapti.pdf Ташкент, 2020 йил 19 июль.
9. Abdurahmonov X.X., Arabov N.U., Xolmuxamedov M.M. Aholi daromadlari va turmush sifati. – T: "Tafakkur bo'stoni", 2014. – b.79.
10. Просветов Г.И. Управление в сфере услуг: задачи и решения. Учебно-практическое пособие. - М.: Издательство»Альфа-Пресс», 2009.-184 с.

